

KADIROVA Madinabonu Turgunovna
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Arab tili va adabiyoti al-Azhar kafedrasida
dotsenti, PhD
kamadina2544@gmail.com

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA ARAB TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH: AN'ANAVIY YONDASHUVDAN KOMPETENSIYAVIY MODELGA O'TISH ZARURATI

ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ ПО АРАБСКОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: НЕОБХОДИМОСТЬ ПЕРЕХОДА ОТ ТРАДИЦИОННОГО ПОДХОДА К КОМПЕТЕНТНОСТНОЙ МОДЕЛИ

TRAINING ARABIC LANGUAGE SPECIALISTS IN THE DEVELOPMENT OF NEW UZBEKISTAN: THE NECESSITY OF TRANSITIONING FROM A TRADITIONAL APPROACH TO A COMPETENCY-BASED MODEL

Annotatsiya: Ushbu maqolada «Yangi O'zbekiston» strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida xorijiy tillar, xususan, arab tiliga bo'lgan talabning transformatsiyasi chuqur tahlil qilinadi. O'zbekistonning arab dunyosi bilan geoiqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalari kengayib borayotgani til o'qitish tizimi oldiga yangi vazifalar qo'yayotgani asoslanadi. Maqolada arab tili o'qituvchilarini tayyorlashdagi an'anaviy yondashuvning bugungi kun talablariga nomuvofiqligi, mavjud ziddiyatlar ochib berilgan. Muammoning yechimi sifatida bo'lajak mutaxassisning filologik, pedagogik-psixologik, madaniyatlararo muloqot, innovatsion-kreativ va amaliy tarjimonlik ko'nikmalarini o'z ichiga olgan kompleks kompetensiya modeli taklif etiladi. Mazkur modelni amaliyotga joriy etish bo'yicha strategik tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, Yangi O'zbekiston, arab tili, inson kapitali, ta'lim islohotlari, innovatsion pedagogika, madaniyatlararo muloqot, strategik sheriklik, turizm

Аннотация: В данной статье глубоко анализируется трансформация спроса на иностранные языки, в частности на арабский, в условиях социально-экономических реформ, реализуемых в рамках стратегии «Новый Узбекистан». Обосновывается, что расширение геоэкономических и культурно-гуманитарных связей Узбекистана с арабским миром ставит новые задачи перед системой преподавания языков. В статье раскрываются несоответствие традиционного подхода в подготовке преподавателей арабского языка современным требованиям и существующие противоречия. В качестве решения проблемы предлагается комплексная компетентностная модель будущего специалиста, включающая филологические, педагогико-психологические, межкультурно-коммуникативные, инновационно-креативные компетенции и навыки практического перевода. Выдвигаются стратегические рекомендации по внедрению данной модели в практику.

Ключевые слова: компетентностный подход, Новый Узбекистан, арабский язык, человеческий капитал, образовательные реформы, инновационная педагогика, межкультурная коммуникация, стратегическое партнерство, туризм

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the transformation in demand for foreign languages, particularly arabic, in the context of the socio-economic reforms being implemented under the «New Uzbekistan» strategy. It substantiates that the expansion of Uzbekistan's geo-economic and cultural-humanitarian ties with the arab world establishes new objectives for the language education system. The article reveals the inadequacy of the traditional approach in training arabic language teachers to meet modern requirements, as well as the existing contradictions. As a solution, a comprehensive competency-based model for future specialists is proposed, which includes philological, pedagogical-psychological, intercultural communication, innovative-creative competencies, and practical translation skills. Strategic recommendations for the practical implementation of this model are put forward.

Keywords: competency-based approach, New Uzbekistan, arabic language, human capital, educational reforms, innovative pedagogy, intercultural communication, strategic partnership, tourism

KIRISH

Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish mamlakat taraqqiyotining strategik ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2020-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va sohadagi keyingi islohotlar jahon bozorida raqobatbardosh, kreativ fikrlaydigan va innovatsiyalarni hayotga tatbiq eta oladigan yangi avlod kadrlarini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda xorijiy tillarni o'qitish, ayniqsa, tarixan chuqur ildizlarga ega va bugungi kunda geoiqtisodiy ahamiyati ortib borayotgan arab tilini o'qitish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda [1].

Bugungi kun talabi — bu shunchaki tilni grammatik qoidalar yig'indisi sifatida o'rgatish emas, balki uni turli sohalarida amaliy qo'llay oladigan, madaniyatlararo muloqotga kirisha oladigan va milliy manfaatlarni ilgari sura oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Biroq, arab tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimida an'anaviy yondashuv va zamonaviy talablar o'rtasida jiddiy tafovut saqlanib qolmoqda [2]. Ushbu maqolada mazkur muammoni tahlil qilish va uni bartaraf etish uchun kompleks kompetensiyaviy modelni taklif etish maqsad qilingan.

ASOSIY QISM

O'zbekiston zaminida arab tilini o'rganish an'anasi shunchaki an'ana emas, balki sivilizatsiyamizning intellektual o'zagini tashkil etuvchi fundamental hodisadir. Islom sivilizatsiyasining "oltin davri"da Buxoro, Samarqand va Urganch kabi shaharlar jahonning eng yirik ilm-fan va ma'rifat markazlari sifatida tan olingan bir paytda, bu zaminda voyaga yetgan mutafakkirlar uchun arab tili universal ilmiy til vazifasini o'tagan. Imom Buxoriy va Imom Termiziy kabi hadis ilmining sultonlari Payg'ambar (s.a.v.) hadislarining har bir nozik ma'nosini, so'zlar orasidagi uslubiy farqlarni anglash uchun arab tilining nafaqat grammatik, balki balog'at va ritorika qirralarini ham mukammal egallaganlar. Shu bilan birga, Muhammad Xorazmiy "al-Jabr"ga asos solgan, Abu Rayhon Beruniy o'zining mineralogiya, geografiya va astronomiyaga oid qomusiy asarlarini yaratgan, Abu Ali ibn Sino esa "Tib qonunlari" ("Al-Qonun

fit-Tibb") bilan butun dunyo tibbiyotiga asrlar davomida darslik bo'lgan til ham aynan arab tili edi. Bu intellektual yuksalishning cho'qqisi, shubhasiz, xorazmlik Mahmud Zamaxshariydir. U o'zining asarlari bilan arab tili grammatikasini shunday bir mukammal ilmiy tizimga soldiki, uni hatto arablar ham "Ustozul-arab val-ajam" (Arablar va g'ayriarablar ustoz) deb tan olishga majbur bo'ldilar [7]. Uning bu xizmati, ajam (arab bo'lmagan) bir insonning tilni uning sohiblaridan ham chuqurroq o'rganishi va tizimlashtirishi mumkinligining yorqin isbotidir. Shunday ekan, bu bebaho meros bugungi avlod uchun shunchaki tarixiy faktlar yig'indisi emas, balki har bir yosh arabshunos uchun kuchli ma'naviy rag'bat va O'zbekistonning jahon arabshunosligida yana o'z munosib o'rnini egallay olishi uchun mustahkam intellektual poydevordir. Bugun arab tilining ahamiyati faqat tarixiy meros bilan cheklanmaydi. Quyidagi zamonaviy omillar uning strategik rolini belgilab bermoqda:

So'nggi yillarda O'zbekiston uchun arab dunyosi bilan iqtisodiy hamkorlik shunchaki tashqi siyosat yo'nalishidan mamlakat modernizatsiyasining qudratli drayveriga aylandi. Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Quvayt, Qatar va Misr kabi davlatlar bilan strategik sheriklik yangi, misli ko'rilmagan bosqichga chiqdi. Bu shunchaki an'anaviy savdo-sotiq emas, balki O'zbekiston iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlariga yo'naltirilgan ko'p milliardli investitsion oqimlardir. Xususan, energetika sohasida Saudiya Arabistonining "ACWA Power" va BAAning "Masdar" kabi gigant kompaniyalari tomonidan "yashil" vodorod ishlab chiqarish, shamol va quyosh elektr stansiyalarini qurish bo'yicha yirik loyihalar jadal amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bank-moliya sohasida nafaqat an'anaviy investitsiyalar, balki O'zbekistonda ilk bor islomiy moliya instrumentlarini joriy etish bo'yicha faol ish olib borilayotgani, shaharsozlik va infratuzilmada "Yangi Toshkent" kabi mega loyihalarga Fors ko'rfazi mamlakatlarining yirik investitsion fondlari katta qiziqish bildirayotgani hamda agrosanoat yo'nalishida O'zbekiston arab dunyosining oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha strategik dasturlarida ishonchli hamkor sifatida ko'rilyotgani bu hamkorlikning ko'lamini yaqqol ko'rsatadi. Ushbu keng ko'lamli iqtisodiy integratsiya jarayonida arab tilini bilish endi

shunchaki qo‘shimcha afzallik emas, balki strategik zarurat va muvaffaqiyat garoviga aylandi. Chunki muzokaralarning muvaffaqiyati, shartnomalardagi milliy manfaatlarining himoyasi va loyihalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishi ko‘p jihatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga bog‘liq. Arab biznes madaniyatida shaxsiy ishonch va hurmat bitimning moliyaviy shartlaridan kam o‘rin tutmaydi va hamkorning tilida gapirish bu ishonchni qozonishning eng samarali yo‘lidir. Shu sababli, bugungi kunda o‘z sohasining terminologiyasini chuqur biladigan va arab tilida erkin muloqot qila oladigan iqtisodchilar, huquqshunoslar, energetik muhandislar, IT mutaxassislari, logistika menejerlari va malakali tarjimonlarga bo‘lgan ehtiyoj mislsiz darajada keskin oshdi [5].

O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi yetakchi geosiyosiy subyekt sifatidagi roli ortib borar ekan, mamlakatimiz arab davlatlari bilan Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) kabi nufuzli xalqaro platformalarda hamkorlikni nafaqat kuchaytirmoqda, balki uni yangi mazmun bilan boyitmoqda. Bu shunchaki ishtirok etish emas, balki Afg‘oniston masalasi, oziq-ovqat xavfsizligi, islomofobiyaga qarshi kurash kabi global muammolar yuzasidan o‘z tashabbuslarini ilgari surish va mushtarak pozitsiyani shakllantirishdir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning arab mamlakatlariga oliy darajadagi tashriflari natijasida imzolananayotgan strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va ko‘p qirrali hamkorlik dasturlari siyosiy muloqotni amaliy mazmun bilan to‘ldirdi. Aynan shu jarayonda O‘zbekistonning “yumshoq kuchi” va madaniy diplomatiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bu mamlakatimizning boy sivilizatsion brendini xalqaro maydonda to‘g‘ri taqdim etish, uning nafaqat postsovet davlati, balki Imom Buxoriy, Moturidiy, Zamaxshariy kabi allomalar vatani ekanligini arab dunyosi jamoatchiligiga yetkazish, shu orqali mamlakatning xalqaro obpo‘cini yuksaltirish demakdir. Bunday keng qamrovli vazifalarni amalga oshirish uchun esa arab tilini shunchaki tarjima darajasida emas, balki siyosiy diskurs, diplomatiya protokoli va madaniy mentalitetning eng nozik qirralarini chuqur tushunadigan mutaxassislar talab etiladi. Bular nafaqat diplomatlar, balki arab dunyosidagi jarayonlarni tahlil qila oladigan siyosatshunoslar, xalqaro jurnalistlar va ekspertlardir, ular

O‘zbekistonning milliy manfaatlarini xalqaro platformalarda ilgari suruvchi strategik kuchga aylanadi [3].

Yangi O‘zbekiston sharoitida jamiyatda o‘zlikni anglash, islomiy qadriyatlar va boy ma‘naviy merosga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada kuchayib, bu holat arab tiliga bo‘lgan ehtiyojning yangi qirralarini ochib bermoqda. Bu endi tor doiradagi mutaxassislarning xohishi emas, balki keng jamoatchilikda yuzaga kelayotgan intellektual ehtiyojdir. Bu ehtiyoj nafaqat Qur‘oni Karim va hadis kabi diniy adabiyotlarni, balki ajdodlarimizning tibbiyotga oid Ibn Sino asarlarini, astronomiyaga oid Ulug‘bek va Farg‘oniy risolalarini, algebra, kimyo va falsafaga doir fundamental ilmiy manbalarni bevosita asl nusxada o‘rganishga bo‘lgan kuchli intilishda namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, tashqi dunyoda, ayniqsa arab mamlakatlarida O‘zbekistonga nisbatan “Imom Buxoriy yurti”, “Islom sivilizatsiyasi beshiklaridan biri” degan tasavvur mustahkamlanmoqda. Natijada Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Imom Moturidiy kabi ulug‘ zotlar qadamjolarini ziyorat qilish uchun kelayotgan sayyohlar oqimi yil sayin ortib, ziyorat turizmi mamlakat iqtisodiyotining eng istiqbolli va serdaromad sohalaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun esa arab tilida shunchaki so‘zlasha oladigan emas, balki O‘zbekiston tarixi va madaniyatini, islom sivilizatsiyasidagi o‘rnini, ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur biladigan, munozara yurita oladigan va zamonaviy O‘zbekistonning yutuqlarini ham taqdim eta oladigan professional gid-tarjimonlarni, ya‘ni o‘ziga xos “madaniy elchilarni” tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas iqtisodiy zaruratidir [8].

Yuqorida sanab o‘tilgan iqtisodiy, geosiyosiy va ijtimoiy-madaniy talablarga javoban, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda arab tilini o‘qitishning nazariy jihatdan ko‘p bosqichli va tarmoqlangan tizimi shakllantirildi. Ushbu tizimning tayanch ustuni sifatida, sohaning ilmiy-metodik flagmani bo‘lgan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti arab filologiyasining fundamental yo‘nalishlarini rivojlantirib, mamlakat uchun yuqori malakali arabshunoslar tayyorlab kelmoqda. Shu bilan birga, diniy va manbashunoslik yo‘nalishlariga

ixtisoslashgan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining tashkil etilishi ilmiy-ma'rifiy merosni asl manbalardan o'rganishga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Bu ikki yirik ilmiy dargohga qo'shimcha ravishda, bozorning amaliy talablariga tezkor javob berayotgan ko'plab nodavlat ta'lim markazlarining paydo bo'lishi keng omma uchun arab tilini o'rganish imkoniyatini yaratdi, ular asosan qisqa muddatli intensiv kurslar orqali so'zlashuv, turizm yoki biznes uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga e'tibor qaratmoqda. Natijada, bir qarashda, mamlakatda arab tilini o'rganish uchun keng qamrovli va ko'p qirrali ta'lim landshafti vujudga kelgandek ko'rinadi, biroq aynan mana shu institutsional rang-baranglik, o'z navbatida, yagona standartlarning yo'qligi va o'qitish metodikasidagi farqlar kabi jiddiy ziddiyatlarning yuzaga kelishiga ham zamin yaratdi. Biroq, bu imkoniyatlardan samarali foydalanishga to'sqinlik qilayotgan jiddiy ziddiyatlar mavjud:

1. An'anaviy ta'lim va zamonaviy mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlik: Aksariyat OTMLarda arab tili hali ham klassik filologiya an'analari asosida, asosan grammatik-tarjima metodi yordamida o'qitiladi. Natijada bitiruvchilar kuchli nazariy bilimga ega bo'lsalar-da, real ish jarayonida talab etiladigan sinxron tarjima, biznes yozishmalari, loyiha taqdimotlari kabi amaliy ko'nikmalarga ega bo'lmayaptilar [6].

2. Innovatsiyalarga talab va resurslar yetishmasligi ziddiyati: O'qituvchilardan darslarda interfaol texnologiyalar, onlayn platformalar, zamonaviy dasturlardan foydalanish talab etiladi. Biroq, barcha ta'lim muassasalari ham zarur moddiy-texnik baza (lingafon xonalari, smart-doskalar, litsenziyalangan dasturlar) va sifatli o'quv-metodik materiallar (zamonaviy darsliklar, audio va video resurslar) bilan to'liq ta'minlanmagan [4].

3. Kompetensiyaning aniq mezonlari yo'qligi: Bugungi kungacha "zamonaviy arab tili o'qituvchisi" yoki "arab tili mutaxassisi" qanday bilim, ko'nikma va malakalarga (ya'ni, kompetensiyalarga) ega bo'lishi kerakligi haqida yagona, ilmiy asoslangan va davlat darajasida tasdiqlangan kompetensiya modeli mavjud emas. Bu holat o'quv dasturlarini ishlab chiqishni, bitiruvchilar malakasini baholashni va umuman ta'lim sifatini boshqarishni qiyinlashtiradi.

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun an'anaviy "bilim, ko'nikma, malaka" uchligidan voz kechib, bo'lajak mutaxassisini tayyorlashda kompleks *kompetensiyaviy yondashuv*ga o'tish lozim. Biz taklif etayotgan model quyidagi beshta o'zaro bog'liq kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

1. Filologik kompetensiya: Bu — poydevor. Arab adabiy tili (Al-Fusha) va uning asosiy lahjalarini chuqur bilish, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, matnshunoslik bo'yicha fundamental bilimlar.

2. Pedagogik-psixologik kompetensiya: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar (CLIL, Project-Based Learning, Flipped Classroom), raqamli ta'lim vositalari (EdTech), turli yoshdagi o'quvchilar bilan ishlash psixologiyasini bilish va baholashning innovatsion usullarini qo'llay olish [3].

3. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi: Arab dunyosining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, biznes odobi, mentaliteti, urf-odatlar va stereotiplarini chuqur tushunish. Bu til orqali samarali va hurmatga asoslangan muloqot qurish garovidir.

4. Innovatsion-kreativ kompetensiya: Ta'lim jarayoniga ijodiy yondashish, yangi o'quv materiallarini mustaqil yarata olish, nostandart vaziyatlarda yechim topa bilish va doimiy kasbiy rivojlanishga intilish.

5. Amaliy ko'nikmalar kompetensiyasi: Og'zaki (sinxron, izchil) va yozma tarjimonlikning asosiy texnikalarini egallash, ish yuritish hujjatlarini (shartnoma, memorandum, biznes xat) arab tilida tayyorlay olish, gid-ekskursovodlik va loyiha menejmenti bo'yicha boshlang'ich ko'nikmalar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning jahon maydonidagi o'rni mustahkamlanib, arab dunyosi bilan strategik sherikligi chuqurlashib borar ekan, arab tili mutaxassislarini tayyorlash masalasi milliy taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Mavjud an'anaviy ta'lim paradigmasi zamonaviy mehnat bozorining ko'p qirrali talablariga to'liq javob bera olmayotgani, nazariy bilimlar va real amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi tafovut kabi ziddiyatlar bu sohadagi islohotlarni kechiktirib bo'lmas vazifaga aylantirmoqda. Bu

muammolarni bartaraf etish va zamon talablariga mos yangi avlod arabshunoslarini shakllantirish uchun taklif etilayotgan besh komponentli (filologik, pedagogik-psixologik, madaniyatlararo, innovatsion-kreativ va amaliy) kompetensiyaviy modelga o'tish strategik jihatdan to'g'ri yechimdir. Buning uchun, avvalo, manfaatdor idoralar bilan hamkorlikda ushbu model asosida yangi Davlat ta'lim standarti va malaka talablarini ishlab chiqish lozim. Shuningdek, OTMlardagi mavjud o'quv rejalarini tanqidiy qayta ko'rib chiqib, ularni "Biznes arab tili", "Diplomatik yozishmalar" kabi amaliyotga yo'naltirilgan fanlar bilan boyitish, amaliy mashg'ulotlar ulushini keskin oshirish talab etiladi. Bu jarayonda professor-o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik va AKT texnologiyalari bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish hamda ularni xalqaro stajirovkalarga yuborish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim sifatini oshirishda "Universitet – Ish beruvchi" hamkorligini kuchaytirish, talabalarning ixtisoslashgan korxonalarda amaliyot o'tashini yo'lga qo'yish hamda eng yangi o'quv materiallarini o'zida jamlagan yagona milliy raqamli platformani yaratish islohotlarning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Faqat shunday kompleks va tizimli yondashuv orqaligina biz zamon talablariga to'liq javob beradigan, O'zbekistonning milliy manfaatlarini xalqaro maydonda munosib himoya qila oladigan yangi avlod arabshunos mutaxassislarini tarbiyalay olamiz va bu orqali Uchinchi Renessansning mustahkam poydevoriga o'z munosib hissamizni qo'shamiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori. 2017 yil, 20 aprel
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida <https://soliq.uz/other/social-development-year>
4. Человеческий капитал: понятие и особенности его использования. <https://articlekz.com/article/10736>
5. Ўзбекистонда араб тили таълими: тарих ва замонавий ҳолат <https://arabic.uz/maqolalar/802-uzbda-arab-tili-talimi.html>
6. Ўзбекистон Республикаси ва араб давлатлари ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг тенденцияси: <https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/4397/>
7. <https://inlibrary.uz/index.php/aijmr/article/view/65765>
8. <https://shosh.uz/mutafakkirlar-mahmud-zamahshariy-1075-1144/>
9. <https://masjid.uz/>